

Avestoda O'rta Osiyo qadimgi aholisi haqidagi ma'lumotlar.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

Suyunov Farid Abdumalik o'g'li

+998944694422

Annotasiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqida ma'lumot beruvchi ilk manbalardan bo'lgan "Avesto" kitobi va unda tilga olingan yurtimiz hududida yashagan qadimgi xalqlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Avesto", "Videvdat", "noma'lum yozuv", "Mazdaga sig'inmoq", Axura, Mazdayasna, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Xorazm, Anketil Dyuperron, "Rigveda", "fragard", "behisht", daujvah, Saoshyanata.

Abstract

This article deals with the book "Avesta", which is one of the first sources of information about the ancient history of the peoples of Central Asia, and about the ancient peoples who lived in the territory of our country mentioned in it.

Key words: "Avesta", "Videvdat", "unknown inscription", "Worship of Mazda", Ahura, Mazdayasna, Baktriya, Margiyona, Sugdiyona and Khorezm, Anketil Duperron, "Rigveda", "fragard", "paradise", daujvah, Saoshyanata.

O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqida ilk ma'lumot beruvchi dastlabki manba - Avesto bo'lib, birinchi bor uning "Videvdat" kitobida O'rta Osiyoning qadimgi viloyatlari va xalqlarining nomlari tilga olinadi.

O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqida Ahomaniy podsholarining qoyatoshlarga bitilgan bitiklarida ham tegishli ma'lumotlar uchraydi. O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlari, kiyim-kechagi va ko'p qirrali hayoti haqida qiziqarli materiallar yunon mualliflari va Xitoy yozma manbalarida ko'proq uchraydi. Bulardan tashqari arxeologik izlanishlar davomida turli davr va yillarda topilgan mahalliy aholining xorazmiy, bohtariy, sug'diy, parfiyoniy va "noma'lum yozuv" deb atalmish yozma manbalari ham borki, ular qisqa va kam bo'lishidan qat'iy nazar, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek etnogenezi uchun noyob ma'lumotlar beradi. Arab, fors va turk yozma manbalarida ham o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi uchun qimmatli ma'lumotlar uchraydi. O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalalarini yoritishda ularning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu yozma manbalar ichida eng



qadimgisi, qadimda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar nomini ilk bor tilga olgan yozma manba – bu Avestodir.

“Avesto” o'lkamizda islom dini yoyilguniga qadar (milodiy VIII asrgacha) ajdodlarimiz e'tiqod qilgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan. Bu kitob ajdodlarimiz yakkaxudolikka iymon keltirgunlarigacha uzoq o'tmishdan boshlab ma'naviy izlanish, o'zlikni anglash yo'lida bosib o'tgan tafakkur takomillashuvi bosqichlarining mevasi sifatida bizgacha yetib kelgan buyuk merosdir.

Zardushtiylik dini odamlarga bu din haqida xushxabar keltirgan payg'ambar Zaratushtra nomi bilan bog'liq holda shartli ravishda shu nom bilan atalib kelinadi. Aslida “Avesto” kitobida bu din mazdayasna dini deb atalgan. Bu so'z “Mazdaga sig'inmoq” deb tarjima qilinib, Mazda so'zi “donishmand, aqilli”ma'nosini anglatadi.

Barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan, deb e'tiqod qilingan. Mazda so'zi oldiga Axura – “ulug'lash” so'zi qo'shib, zardushtiylikning ilohiy-xudosi – Axura Mazda nomi paydo bo'lgan. Mazdayasna (zardushtiylik) dini o'lkamizda islom dini yoyilishi jarayonida, xususan, VIII asrdan keyin rasmiy din sifatida so'na boshlagan. Uning muqaddas kitobi, ajdodlarimiz islomga qadar yaratgan ko'plab kitoblar qatori, yo'qola va unutila boshlagan. Ayniqsa, VIII asr boshlaridan boshlab fath etilgan barcha o'lkalarda arab yozuvi va tilining qat'iy joriy qilinishi, sug'd, eftaliy, pahlaviy, moniy, suryoniy va boshqa yozuvlarning rasman man etilishi qadimiy yozuv madaniyatining unutilish jarayonini yanada tezlatdi.

Lekin “Avesto” haqida gap ketganda, uning tarixiy taqdirida o'ziga xos voqealar davri boshlandi. Avvalo, arablar ilk harbiy yurishlari bilan VII asr o'rtalarida Sosoniylar Eroni, so'ngra Markaziy Osiyoga kirib kelgandayoq ajdodlarimizning qadimiy dini zardushtiylik bilan yuzma-yuz kelgan edi. Keyinchalik fath ishlari poyoniga yetib, islom dini yoyilgan pallada zardushtiy jamoalari yalpi ta'qib ostiga tushdi. Bu hol Eronu Turon o'lkalarida ayovsiz davom etdi. Shu vaziyat taqozosi bilan zardushtiylarning bir qismi xavfsiz o'lkalarga ko'chib ketishga majbur bo'ldi.

Oqibatda VIII–XIII asrlar davomida bu jamoalar Hindistonning Bombey va Gujarot viloyatlariga kelib o'rnashdi. Bu qavmlar, asl kelib chiqishidan qat'i nazar, mahalliy xalq orasida forslar (parslar), deb atala boshlandi. Muhimi shundaki, ayni shu zardusht jamoalari qadimiy dinlariga e'tiqodni saqlab qolganliklari tufayli umuman unutilishga mahkum etilgan din tizimi, uning urf-odatlari, aqidalari va nihoyat, muqaddas kitobi “Avesto”ning asosiy, kundalik amaliyot uchun eng zarur va muqaddas hisoblangan qismlari saqlanib qoldi.

Hozirgi kunda ham o'sha qavmlarning avlodlari – qariyb 150 ming zardushtiy Hindistonning mazkur o'lkalarida o'z dinlarini saqlab yashab kelmoqda.

Ko'pchilik olimlarning ta'kidlashlaricha, zardushtiylik dinining ilk vatani Turon o'lkalari bo'lgan, deb tan olishmoqda. Chunki, "Avesto"da aks etgan mifologik qatlamlar, tarixiy-geografik manzaralar asos-e'tibori bilan Turon o'lkalariga, aniqrog'i, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Xorazmga xosdir. Qolaversa, "Avesto"ga asos bo'lgan til, hozirgi fors tilining ajdodi bo'lmish qadimgi janubi-g'arbiy eroniy tildan farqli ravishda, shimoli-sharqiy eroniy tillarga, xususan, O'zbekistonning qadimgi hududlarida amal qilgan tillarga qarindoshdir.

Aksariyat olimlarning fikricha Zardusht tarixiy shaxs. Zardusht an'anaviy tasavvurlarga ko'ra, miloddan avvalgi VII-VI asrlar oralig'ida yashagan (I.M.Dyakonov, V.I.Abayev, B.G'.G'ofurov). Ammo, Avesto ma'lumotlariga asoslanib olimlar Zaratushtrani miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida (XIII-XII asrlarda - Meri Boys), miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida (X-IX asrlar oralig'ida-I.M.Steblin - Kamenskiy) o'tgan, degan fikrlar ham o'rtaga tashlangan¹.

Xo'sh, Zardusht qachon yashagan? Bu masalada, bizningcha, miloddan avvalgi II ming yillik – o'lkamizda bronza asri gullab-yashnagan, sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik muqim rivojlangan, jamiyatda hokimlar, ruhoniylar, harbiylar, hunar ahli, chorvadorlar, dehqonlar kabi tabaqalar yuzaga kelib, mehnat taqsimoti va ijtimoiy tabaqalanish chuqurlashgan davr – zardushtiylik yaxlit din sifatida shakllangan davr, deyishga to'la asos bor. Ana shu davrda ibtidoiy diniy-mafkuraviy, mifologik tasavvurlar saqlanib, ma'lum bir tizimga keltirilgan. Dunyoning yaxlitligi, hayot tarzining muqim va tadrijiyligi turli-tuman ilohlarga e'tiqodni so'ndirib, yaxlit, yagona sababkorni izlashga, uni tanishga, unga iymon keltirish va e'tiqod qilishga undagan. Demak, miloddan avvalgi II mingyillik o'lkamizda kuchli tafakkur izlanishlari davri sifatida, xaqni tanish, pirovardida yakka xudoni tanishda ajdodlarimiz uchun o'ziga xos ma'naviy taraqqiyot bosqichi bo'lgan.

Sharqda tarixiy manbalar "Avesto" kitobi mavjud bo'lgani haqida ikki ming yildan ziyod vaqt davomida ko'plab ma'lumotlarni saqlagan. Yevropada esa "Avesto" kitobi haqida ilk ma'lumotlar o'rta asrlardagina paydo bo'lgan, ya'ni inglizlar

¹ Asqarov A.A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. "O'zbekiston"-2015. 91,97 betlar

Hindistonni istilo qilgach, bu ma'lumot yanada boyigan. 1750-yillarning boshlarida yosh fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron "Avesto"ni o'rganish ishtiyoqi bilan yonib, ingliz harbiy qismlariga qo'shilib Hindistonga boradi. Zardushtiy jamoalar orasida uzoq muddat bo'lib, ularning ishonchini qozonib, dindorlargina tafsir qila oladigan "Avesto" tilini o'rganadi, "Avesto" matnlarini sotib oladi. So'ngra 1761 yili Fransiyaga qaytib kelib, 1771 yili "Avesto" matnlarini nashr ettiradi.

Ko'p o'tmay "Avesto" haqidagi ma'lumotlar yanada ko'payib, unga ilmiy qiziqish ortdi. Dyuperronning buyuk ilmiy jasorati va fan oldidagi xizmati tan olinadi. U tarjimada yo'l qo'ygan xatolar, talqindagi kamchiliklar tuzatiladi. "Avesto" bilan hind xalqining ulug' asotiriy asari "Rigveda"ning tili yaqin ekanligi ma'lum bo'ladi. A. Dyuperron "Avesto" tili Hindistonning boshqa tillariga hamda yunon va lotin tillariga yaqinligini anglab, tarixda birinchi bo'lib fanga "hind-yevropa tillari" tushunchasini kiritdi.

"Avesto" o'z vatani Turonzaminda qadimdan ilmiy dunyo diqqat markazida bo'lib kelgan². Avvalo, bu masala "Avesto" kitobining to'planishi, uning tarkibiy bo'laklariga silsilaviy tartib berilishi va nihoyat, eng mukammal, ishonchli shakli yuzaga kelishi uzoq ajdodlarimizning kitobchilik madaniyati hamda qadimiy matnshunoslikning buyuk namunasi. Qolaversa, o'rta asr ilmida "Avesto" haqida batafsil ma'lumotlarni ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy asarlaridan va boshqa manbalardan olish mumkin.

Avesto bizgacha to'liq yetib kelmagan, uning Yasna, Yasht, Visparad, Videvdat deb atalgan kitoblaridan parchalar yetib kelgan. "Avesto"ning "Videvdat" kitobi 22 bob bo'lib, Avesto qismlari orasida birmuncha yosh, lekin to'liq saqlangan kitobdir³. Uning boblari "fragard" deb atalgan. Fragardlarda Axura Mazda yaratgan 16 ta viloyatlar, jumladan Xvarizam (Xorazm), Gava Sug'uda (Sug'd), Mouri (Marv), Baxdi (Balx) haqida, dehqonchilik va chorvachilikning savobli sharofatlari haqida ma'lumotlar berilgan⁴.

² Asqarov A. O'zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari // Davlatchilikning ilk bosqichlarida – O'zbekiston. (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). T.: 2010. 10-b.

³ Sagdullayev A.S. Avesto tarixiy geografiyani o'rganish manbai sifatida. "Avesto kitobi-tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent, 2000, 35-39 betlar

⁴ Is'hakov M. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal. "Avesto kitobi-tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent, 2000, 14,17 betlar;.

Avestoning “Visparad” kitobida zardushtiyarning bayram va diniy marosimlarda ijro etiladigan madhiyalari to‘plangan. Yasht kitobi “Avesto”ning eng qadimiy qatlami bo‘lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma‘lum vazifalarini bajaruvchi ma‘budlar sha‘niga aytilgan madhiya (alqov)lardan iboratdir. Demak, Yasht boblari qadimgi qabilalar og‘zaki ijodi asosida paydo bo‘lgan.

“Avesto” qadimiy tarix, din, etnografiya, axloqiy-falsafiy qarashlar, astronomiya, ilohiyot va boshqa ko‘plab sohalar uchun qiziqarli ma‘lumotlar bera oladi⁵. Shu bilan birga, “Avesto” mohiyatan ilk badiiy ijod va adabiyot obidasidir. Uning tarkibida eng qadimgi asotirlarimiz, rivoyatlar, qahramonlik dostonlari mavjud. “Avesto”ning asotiriy obrazlari tizimidan o‘rin olgan Xushang, Taxmuras, Jamshid, Kayumars, Faridun, Zahhok va boshqalar o‘rta asr dostonchiligi va adabiyotiga ham kirib kelgan. Kayxusrav, Afrosiyob, Siyovush, Rustam, Suhrob va boshqa siymolar asrlar osha yashab kelmoqda.

“Avesto”da zardushtiylikning eng muhim axloqiy g‘oyasi bunday ifoda topgan: agar ezgu borliqni yaratgan Axura Mazda qabohat dunyosini yaratuvchi Axriman ustidan g‘olib bo‘lib, insoniyat abadiy baxtu saodatga erishsin desang, ezgu fikr yurgiz, ezgu so‘znigina so‘zla, ezgu ishlar bilan band bo‘l. Hayotida shu uch qoidaga amal qilgan odam qabohat, yovuzlik yo‘liga og‘ib ketmaydi. Bu esa eng oddiy hayotiy maqsad – haq yo‘ldagi yagona maqsad bo‘lmog‘i kerak. Zardushtiylikda inson erkin tanlash orqali ezgulik yoki qabohat tomonida turishi mumkin, deyiladi⁶. Insonning bu masalada tutgan yo‘li haqiqat va ezgulik bilan yolg‘on va yovuzlik o‘rtasidagi kurashda ezgulikning g‘alabasi uchun g‘oyat muhim. Ezgulik yo‘li esa haq yo‘l bo‘lib, Axura Mazdaning xabarini keltirgan Zardusht odamlarni shu yo‘lga yetaklaydi. Iymonli, e‘tiqodli odamlarning ommaviy ezgu harakatlari yomonlik, qabohat ustidan g‘olib bo‘ladi. Shunda ezgu amalda turgan barcha odamlar adolatli saltanatda abadiy yashaydilar. Zardusht odamlarga abadiy farog‘atli jannat hayotini va‘da qiladi. Buning nomi “behisht”, ya‘ni “Avesto”cha vahu-hishta – “yaxshi hayot” demakdir. Zardushtiyalar ananasi bu jannatni 3000 yildan keyin keladi, deb hisoblaydi. O‘shanda Zardusht naslidan paydo bo‘lgan xaloskor Saoshyanata muqaddas suv ostidan chiqib,

⁵ “Avesto” Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq. 2001. 8-34 betlar.

⁶ Asqarov A.A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. “O‘zbekiston”-2015. 91,97 betlar

savobga doxillarning hammasini Axriman yaratgan daujvah (do‘zax) xurujlaridan qutqaradi. Saoshyanata kelgach, ezgulik uzil-kesil g‘alaba qiladi, deyiladi.

Avestodagi qadimgi geografik hududiy tushunchalar – etnik qabilalar va viloyat nomlari, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, Avesto jamiyatining ijtimoiy tarkibi, O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi va ilk davlatchilik tarixi uchun noyob manbadir. Unda o‘zbek va tojik, fors va afg‘on, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ilohiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog‘liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy - axloqiy qarashlar o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Asqarov A.A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. “O‘zbekiston”-2015. 91,97 betlar
2. Asqarov A. O‘zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari // Davlatchilikning ilk bosqichlarida – O‘zbekiston. (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). T.: 2010. 10-b.
3. Sagdullayev A.S. Avesto tarixiy geografiyani o‘rganish manbai sifatida. “Aveso kitobi-tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai” mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent, 2000, 35-39 betlar
4. Is‘hakov M. Ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amal. “Aveso kitobi-tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai” mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent, 2000, 14,17 betlar; .
5. “Avesto” Asqar Mahkam tarjimasini. – T.: Sharq. 2001. 8-34 betlar.
6. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
7. Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(5), 16-27.